



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 2 622,7 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 51,0 ming kishiga yoki 2,0 %ga o'sgan.


E'tibor bering:  
2020-yil yanvar-iyun

- Aholi soni **51,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **24,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **7,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **5,8 mingta nikoh** va **1,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Toshkent shahar aholisining umumiyo'sishi (2020-yil yanvar-iyun)

**Tirik tug'ilganlar**  
**24,4 ming bola**


**Ko'chib kelganlar**  
**36,2 ming kishi**




**Vafot etganlar**  
**7,5 ming kishi**

**Ko'chib ketganlar**  
**2,1 ming kishi**

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
 (2020-yil 1-iyul holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 371,3 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,2 %ni) va Yunusobod tumanida 347,4 ming kishini (13,2 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 35,1 ming kishi (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 119,9 ming kishi (4,6 %) ni tashkil etdi.



**Tumanlar kesimida doimiy aholi soni  
(2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishida)**




**Toshkent shahrining  
aholi soni 2020-yil 1-iyul  
holatiga 2 622,7 ming  
kishi, o'tgan yilga  
nisbatan o'sish sur'ati  
3,4 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 10,1 %ga, Yashnobod tumanida 6,2 %ga, Chilonzor tumanida 2,8 %ga yetdi. Eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 1,0 % ni, Shayxontohur tumanida 1,5 %ni hamda Bektemir tumanida 2,3 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi**  
 (2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishida)



**Ma'lumot uchun**

*Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1 338,8 ming kishini, erkaklar soni esa 1 283,9 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2,0% ga erkaklar sonidan ko'proq.*

	<b>Doimiy aholi soni (ming kishi)</b>	<b>shundan:</b>			
		<b>erkak (ming kishi)</b>	<b>ayol (ming kishi)</b>	<b>erkak (foizda)</b>	<b>ayol (foizda)</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 622,7</b>	<b>1 283,9</b>	<b>1 338,8</b>	<b>49,0</b>	<b>51,0</b>
tumanlar:					
Uchtepa	274,6	135,9	138,7	49,5	50,5
Bektemir	35,1	16,7	18,4	47,6	52,4
Yunusobod	347,4	168,8	178,6	48,6	51,4
Mirzo Ulug'bek	279,5	139,6	139,9	49,9	50,1
Mirobod	140,5	67,8	72,7	48,3	51,7
Shayxontohur	344,5	169,1	175,4	49,1	50,9
Olmazor	371,3	180,6	190,7	48,6	51,4
Sergeli	205,7	98,8	106,9	48,0	52,0
Yakkasaroy	119,9	58,5	61,4	48,8	51,2
Yashnobod	251,3	122,9	128,4	48,9	51,1
Chilonzor	252,9	125,2	127,7	49,5	50,5

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 22,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,9 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 18,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (22,3 promilledan 23,4 promillega) Mirzo Ulug'bek (18,7 promilledan 20,2 promillega) Sergeli tumanida (22,1 promilledan 24,0 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Qiz bolalar:**  
11,7  
ming nafar





**O'g'il bo-lalar:**  
12,7  
ming nafar

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-iyun

	2019y.	2020y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar tumanlar:</b>			
Uchtepa	2 872	3 180	110,7
Bektemir	449	439	97,8
Yunusobod	2 994	3 445	115,1
Mirzo Ulug'bek	1 898	1 676	88,3
Mirobod	1 007	1 163	115,5
Shayxontohur	3 163	3 251	102,8
Olmazor	3 559	3 722	104,6
Sergeli	1 943	2 397	123,4
Yakkasaroy	687	793	115,4
Yashnobod	1 972	2 165	109,8
Chilonzor	2 074	2 202	106,2



**Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi)  
2020-yil yanvar-iyun**



**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida 7,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 6,2 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Mirzo Ulug'bek (7,3 promilledan 5,8 promillega), Yakkasaroy (5,1 promilledan 4,4 promillega), Sergeli (6,9 promilledan 6,4 promillega), Uchtepa (6,3 promilledan 6,0 promillega) va Yunusobod (6,3 promilledan 5,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



3,8 ming  
kishi


3,7 ming  
kishi

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-iyun


	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	7 734	7 522	97,3
tumanlar:			
Uchtepa	834	815	97,7
Bektemir	126	123	97,6
Yunusobod	1 036	1 013	97,8
Mirzo Ulug'bek	986	801	81,2
Mirobod	478	526	110,0
Shayxontohur	760	779	102,5
Olmazor	936	951	101,6
Sergeli	633	643	101,6
Yakkasaroy	304	260	85,5
Yashnobod	884	890	100,7
Chilonzor	757	721	95,2

## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-iyun




### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,8 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,6 % o'simtalardan, 5,1 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,8 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 8,2 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 52,1 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,2 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,0 % tug'ma anomaliyalardan, 6,1 % yuqumli va parazitar kasalliklardan va 9,6 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### **Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



### **2020-yil yanvar-iyun**

**Tabiiy o'sish.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 16,9 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 2,0 ming kishiga (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 14,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
16,9 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,8 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirobod (119,9%) tumaniga to'g'ri kelmoqda.


**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan **yuqori pasayish sur'atlari** Mirzo Ulug'bek (59,0%), Mirobod (66,0%), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2020-yil yanvar-iyun)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>						
Uchtepa	964	679	70,4	242	163	67,4
Bektemir	151	122	80,8	44	39	88,6
Yunusobod	1 108	809	73,0	277	235	84,8
Mirzo Ulug'bek	767	409	53,3	266	157	59,0
Mirobod	431	314	72,9	147	97	66,0
Shayxontohur	1 046	764	73,0	224	190	84,8
Olmazor	1 108	797	71,9	256	206	80,5
Sergeli	736	485	65,9	205	185	90,2
Yakkasaroy	296	355	119,9	91	74	81,3
Yashnobod	773	473	61,2	235	179	76,2
Chilonzor	810	633	78,1	236	167	70,8

**Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik  
(2020-yil yanvar-iyun)**



## Demografik holat


**Migratsiya.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 36,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi 34,1 ming kishi tashkil etib, 2019-yilning mos davrida 12,7 ming kishi bo'lган.

**Aholi migratsiyasi (ming kishi)**

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	16,5	36,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	3,7	2,1
<b>Migratsiya saldosi</b>	12,8	34,1



**Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi (ming kishi)**



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (8,8 ming kishi), Olmazor (4,1 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (4,0 ming kishi) hamda Sergeli (3,9 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.